KOMIL XORAZMIY G‘AZALLARIDA VAZN, QOFIYA VA RADIFNING O‘RNI

Roziqov Abdixoliqxoja Usmon o‘g‘li

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tuman MMTBga qarashli 55-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

roziqovabduxoliqxoja@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Komil Xorazmiyning ilmiy merosiga oid chizgilar mumtoz adabiyotimizda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr va mulohazalarimizni keltirganmiz. Komil Xorazmiy faoliyati ko‘p qirralidir. Shoir g‘azallaridagi formal-poetik xususiyatlarning o‘rni beqiyosdir. Komil Xorazmiydek serqirra ijodkorning devoni tarkibidagi g‘azallarini o‘rganar ekanmiz, ijodkor g‘azallaridagi badiiy san’atlar, vazn, qofiya va radif unsurlari rang-barang va turlichadir. Komil Xorazmiyning uslubi o‘ziga xos ya’ni takrorlanmas jihatlari talaygina desak also mubolag‘a bo‘lmaydi.

ANNOTATION

In this article, we have presented our thoughts and observations on the importance of the scientific heritage of Kamil Khorezmi in our classical literature. Kamil Khorezmi's work is multifaceted. The role of formal and poetic features in the poet's ghazals is incomparable. When we study the ghazals of a versatile creator like Kamil Khorezmi in his divan, we see that the artistic arts, meter, rhyme and radif elements in the creator's ghazals are diverse and varied. It is no exaggeration to say that Kamil Khorezmi's style is unique, that is, has many unique aspects.

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы изложили наши мысли и наблюдения о значении рисунков, связанных с научным наследием Камиля Хорезми, в нашей классической литературе. Творчество Камиля Хорезма многогранно. Роль формально-поэтических черт в газелях поэта не имеет себе равных. При изучении газелей из коллекции такого разностороннего художника, как Камиль Хорезми, художественные элементы, размер, рифма и радиф в газелях художника разнообразны и многообразны. Не будет преувеличением сказать, что стиль Камиля Хорезми уникален, то есть имеет много неповторимых сторон.

Kalit so‘zlar: Vazn, ramal, hazaj, rajaz, muqayyad qofiya, mutlaq qofiya, vasl, xuruj, mazid, noyira.

Keywords: Weight, ramal, hazaj, rajaz, fixed rhyme, absolute rhyme, wasl, khuruj, mazid, noyira.

Ключевые слова: Вес, рамаль, хаджадж, раджаз, фиксированная рифма, абсолютная рифма, васл, хурудж, мазид, нойира.

Musulmon olamining muqaddas kitobi “Qur’oni Karim”dir. Undan keying o‘rinda turadigan ikkinchi muqaddas manda hadisi sharif hisoblanadi. Hadisi sharifda ilm haqida quyidagi fikrlar keltiriladi: “Ilm—sahroda do‘st, hayot yo‘llarida — tayanch, yolg‘iz damlarda — yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda — rahbar, qayg‘uli damlarda — madadkor, odamlar orasida — zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda — quroldir”. Komil Xorazmiy ham ilm yo‘lini tutgan buyuk ijodkorlardan biridir.

Komil Xorazmiy 1825-yilda Xiva shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Shoirning asl ismi Muhammadniyoz bo‘lib, ba’zi manbalarda Niyozmuhammad, Polvonniyoz deb

yuritilgan. Ijodkorning zamondoshlari qisqartirib “Matniyoz” deb chaqirganlar. Komol Xorazmiy esa nisba taxallusidir. Muhammadniyoz Komilning Pahlavon laqabi esa uning jang maydonlaridagi jasorati, mardligi va pahlavonligi evaziga berilgan. Uning padari buzrukvori Abdulla Oxund madrasa mudarrisi bo‘lib ishlagan. U o‘z davrining peshqadamlaridan biri edi.

Komil Xorazmiyning ijodiy faoliyat va g‘azalyotini o‘rganish davomida biz 1975-yilda Abduqodir Hayitmetov va Vasila Mo‘minovalar tomonidan G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan nashrga tayyorlagan devondan foydalandik. Devondagi tadbil qilingan g‘azallar soni 149 tani tashkil qiladi. Devon tarkibida bitta besh baytli, uchta olti baytli, o‘n to‘qqizta yitti baytli, o‘n ikkita sakkiz baytli, ellik yittita to‘qqiz baytli, o‘n beshta o‘n baytli, o‘ttiz uchta o‘n bir baytli, uchta o‘n ikki baytli, oltita o‘n uch baytli g‘azallarni ko‘rishimiz mumkin. Komil Xorazmiy lirikasidagi g‘azallarning eng kam bayti besh baytdan, eng ko‘p bayti o‘n uch baytgacha uchraydi. G‘azalyotga oid ilmiy manbalarda g‘azalning hajmi 5-12 bayt doirasida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda yigirmadan ortiq, hatto, yigirma yitti baytli g‘azallarni ham uchratishimiz mumkin. G‘azalning tarixiy rivojlanishi davomida 7 baytli, keying o‘rinlarda 9, 10, 11 baytli g‘azallar uning asosiy chegarasi bo‘lib qolgan.

Keyingi o‘rinlarda Komil Xorazmiyning devoni tarkibiga kiritilgan g‘azallaridagi taxallus qo‘llash mahoratiga ham e‘tibor qaratdik. Taxallus qo‘llash g‘azalyotning ilk namunalarida ham, keying davr g‘azallarida ham, ayniqsa, bugungi kunda yaratilayotgan g‘azallarning ko‘pchiligida bunday holni uchratish mumkin. Yoqubjon Is’hoqov domla o‘zining badiiy san’atlarga bag‘ishlangan “So‘z san’ati so‘zligi” asarida “taxallus” terminiga adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov domlaning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Taxallus atamasi hozir g‘azal yoki boshqa she’riy asar nihoyasi (maqta’si)da ijodkorning o‘z adabiy nomini qo‘llash ma’nosida qo‘llaniladi. Chunki “taxallus” atamasini shu ma’noda istifoda

etish Sharq badiiyat ilmida nisbatan keyingi hodisa. Dastlab esa bu atama butunlay boshqa ma'noda qo'llangan.

Sharq badiiyat ilmining yirik namoyondalaridan Umar ar-Roduyoniyning "Tarjimon ul-balog'a", Qays Roziyning "Al-mo'jam…" nomli asarlarida taxallus qasida va g'azal baytlarining biridan ikkinchisiga ham fikriy yuksaklik, ham vazniy uyg'unlik, ham ohangvobastaligida, ham qofiya munosibligida hech qanday qusrsiz o'tilishdan iborat, deb tarif beradilar. Hattoki Rodiyoniy bu san'atning qasida janrida amal qilishi haqida so'z yuritar ekan, taxallus nasibatdan tashbibga va undan madhga o'tilishini bayti maxlas, o'tilishdan nazokatni esa husni taxallus, deb nomlaydi. Qays Roziy esa yuqoridagilarga qo'shimcha qilib, "lutfi taxallus, taxallusoti mustahsan, taxallusoti nodiri balig', taxallusoti zisht, taxallusi rakik (sust), taxallusi loyiq, taxallusi guzir, taxallusi qabeh, taxallusi boriz (xunuk)" kabi taxallus ko'rinishlarini qayd etadi". [5:226-227]

Devon tarkibidagi 149 ta g'azaldan 126 tasida shoirning taxallusli g'azallarini ko'rishimiz mumkin. Bu g'azallarning barchasida taxalluslar g'azalning maqta'sida ya'ni so'nggi baytida joylashgan. Devon tarkibidagi qolgan 23 ta g'azalda taxallus qo'llanmagan.

Komil Xorazmiydek serqirra ijodkorning devoni tarkibidagi g'azallarini o'rganar ekanmiz, ijodkor g'azallaridagi badiiy san'atlar, vazn, qofiya va radif unsurlari rang-barang va turlichadir. Komil Xorazmiyning uslubi o'ziga xos ya'ni takrorlanmas jihatlari talaygina desak also mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning g'azallaridagi vazn unsuriga e'tibor beradigan bo'lsak, u aruz vaznining imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Komil Xorazmiyning she'riyati o'zining ma'no mazmuni, umumiy ruhi va uslubi jihatidan o'ziga xoski, unda hayot va insoniy kechinmalar ob'ektiv va real kuylanadi. Komil Xorazniy aruz vazning turli bahrlarida ijod qilgan serqirra ijodkor.

Ramal bahri turkiy she'riyatda eng ko'p qo'llanilgan bahr bo'lib, deyarli barcha shoirlar ijodida yetakchi o'rinda turadi. "Ramal" so'zi arabcha *"tuyaning lo'kkillashi", "bo'yra*

to‘qish” degan ma’nolarni anglatadi. Turkiy adabiyotda ramal bahri (– V – –) asosan musamman va musaddas shakllarda uchraydi.[11:22] Ramal bahrining *ramali musammani solim, ramali musammani mahzuf, ramali musammani maqsur, ramali musammani mashkul, ramali musammani maxbun, ramali musammani maxbuni mahzuf, ramali musammani maxbuni maqsur, ramali musammani solimi maxbuni maqtu, ramali musammani maxbuni maqtuyi musabbag‘, ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur, ramali musaddasi maxbuni mahzuf, ramali musaddasi maxbuni maqsur, ramali musaddasi maxbuni maqtu, ramali musaddasi maxbuni maqtuyi musabbag‘* kabi turlari bor. Komil Xorazmiy g‘azallarida bularning bir nechtasidan foydalangan. Quyida, Komil Xorazmiy g‘azallarini ramal bahrining bir nechta turlarida ko‘rishimiz mumkin:

Ramali musammani mahzuf

foilotun foilotun foilotun foilun
– V – – / – V – – / – V – – / – V –
Ul pari paykor kiyibmu egniga chakman qaro,
Yo libosni tundin aylabmu mahi anvar qaro. [1:20]

* * * * *

Ramali musammani mahzuf

foilotun foilotun foilotun foilun
– V – – / – V – – / – V – – / – V –
Ey sabo, holi dilimni ayla dildorimg‘a arz,
Qomati hamgashtim et ul sarvqad yorimg‘a arz.[1:82]

* * * * *

Ramali musammani maxbuni mahzuf

foilotun failotun failotun failun
– V – – / V V – – / V V – – / V V –
Bo‘lubon shotir, etar nola chu zangula ayon,
Ko‘rsalar husn eli maydonda samanding suri.[1:97]

* * * * *

Ramali musammani aslam

foilotun foilotun foilotun fa’lun
– V – – / – V – – / – V – – / – –
Zulfi mushkining aro yopma yuzing ey gulkim,
Gul yuzin gulshan aro qilmadi pinhon sunbul.[1:114]

* * * * *

Ramali musaddasi mahzuf

foilotun foilotun foilun
– V – – / – V – – / – V –
Qoshlaring bosh qo‘shdi Komil qatlig‘a
Istiroqu istiroqu istiroq.[1:95]

Komil Xorazmiy g‘azalnavislikda aruz vaznining hazaj bahrida ham bir nechta g‘azallar yozgan ekan. Hazaj bahri mafoiylun (V – – –) asliy ruknining baytdagi takroriga asoslangan bo‘lib, qo‘llanilishi jihatidan turkiy she’riyatda ramal bahridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. «Hazaj» so‘zi arabcha «yoqimli ovoz», «xushohang kuy» degan ma’nolarni anglatadi. Hazaj bahrining asliy ruknidan tarmoq ruknlar yasaladi. Bu qanday yuz beradi? Tarmoq ruknlar mafoiylun asliy ruknining hijolarini turlicha o‘zgartirish: tashlab yuborish, qisqartirish yoki cho‘zish orqali paydo bo‘ladi.[11:38]

Hazaj bahrining *hazaji musammani solim, hazaji musammani musabbag‘, hazaji musammani axrab, hazaji musammani axrabi musabbag‘, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf, hazaji musammani axrabi makfufi maqsur, hazaji musammani axrabi makfufi mustazod, hazaji musaddasi mahzuf, hazaji musaddasi maqsur, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi solim, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur, hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf* kabi turlari mavjud.

Quyida, Komil Xorazmiy g‘azallarini hazaj bahrining bir nechta turlarida ko‘rishimiz mumkin:

Hazaji musammani makfuf

mafoiylu mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V – – V / V – – – / V – – – / V – – –
Savodi xatinga gar istamas bo‘lmoq makon qog‘az,
Bayoz ichra nedin daftar bo‘lib ochmish do‘kon qog‘az.[1:56]

* * * * *

Hazaji musammani solim

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun
V – – – / V – – – / V – – – / V – – –
Zamiring aylagil ishqu muhabbat ma’dani, Komil,
Ne qadru e’tibor o‘lg‘ay sadafg‘a durri g‘altondiz.[1:68]

* * * * *

Hazaji musammani ashtar

failun mafoiylun failun mafoiylun
– V – / V – – – / – V – / V – – –
Noz ila xirom etsang Komili xazin sori,
Bo‘lg‘usi nisoringg‘a durru gavharafshon ko‘z.[1:70]

* * * * *

Hazaji musammani maqbuzi ashtar

mafoiylun mafoiylun mafoilun foilun
V – – – / V – – – / V – V – / – V –
Ichurdi soqiyi davron yana mudomi firoq,
Meningdek o‘lmadi bir kimsa talxkomi firoq.[:93]

* * * * *

Hazaji musammani axram

mafoiylun mafoiylun mafoiylun maf’uvlu
V – – – / V – – – / V – – – / – – –
Tunu kun tor yanglig‘ yor edum tanburu qonuna,
Navo qilsam, navo bandan judo ul sozlardurlar.[1:57]

* * * * *

Hazaji musammani ashtar

foilun mafoiylun foilun mafoiylon
– V – / V – – – / – V – / V – – –

Mehri orazing, jono, az nazar chu pinhon shud,
Ko‘zlarimga hajridin subhu shom yakson shud.[1:53]

Komil Xorazmiy lirikasida aruz vaznining rajaz bahrini (– – V –) ham uchtatishimiz mumkin. Rajaz arabcha so‘z bo‘lib “ tezlik ”, “ shitob ”, “ iztirob ” degan manolarni bildiradi. Mazkur bahr *mustaf’ilun* asli va uning takroridan hosil bo‘ladi.[11:72] Rajaz bahrining *rajazi musammani solim, rajazi musammani muzol, rajazi musammani matviyi maxbun* kabi turlari bor.

Quyida, Komil Xorazmiy g‘azallarini rajaz bahrining bir nechta turlarida ko‘rishimiz mumkin:

Rajazi musammani solim
mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun
– – V – / – V – – / – V – – / – V – –
Shahlo ko‘zung atrofida kipriklaringmu, yo‘q esa,
Qurg‘on kiyiklar saydig‘a sayyod mo‘ndularmudur.[1:60]

* * * * *

Rajazi musammani muzol
mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilun mustaf’ilon
– – V – / – V – – / – V – – / – – V ~
Jonim nechuk bo‘lg‘ay xalos ul uch balodin, ey pari,
Bedod etar shirin labing jonimg‘a ham qoshu ko‘zing.[1:102]

Komil Xorazmiy aruz vaznining faqat shu bahrlari bilan cheklanib qolgani yo‘q. Ijodkor aruzning vaznining yuqorida keltirilgan bahrlaridan tashqari mutaqorib, hafif, muzori va boshqa bahrlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Komil Xorazmiy lirikasidagi qofiya tizimi betakrordir. Chunki uning devoni tarkibiga kirgan g‘azallarining qofiyasi boshqa ijodkorlarning g‘azalyotidagi qofiyadan anchagina farq qiladi. Bilamizki, qofiya arabcha so‘zdan olingan bo‘lib *“ergashmoq”, “izidan bormoq”*

degan ma’nolarni bildiradi. Qofiya – ohangdosh so‘zlarning she’r misralarida tizimli bo‘lib kelishi.

G‘azal baytlarida ohangdoshlikni qofiyadosh so‘zlar hosil qilib beradi. Qofiyalanuvchi so‘zlar ham ohangdoshlikda, ham ma’no jihatidan teng bo‘lavermaydi. Ohangdoshlik jihatidan teng bo‘lsa, ma’no jihatidan teng bo‘lmaydi va aksincha, ma’no jihatidan teng bo‘lsa, ohangdoshlikda farq qiladi. Qofiya hosil qiluvchi so‘zlarning ohangdoshligi asos bilan asos orasida, asos bilan qo‘shimcha orasida va qo‘shimcha bilan qo‘shimcha o‘rtasida vujudga keladi. Qofiya she’riyatning musiqiyligi va ritmini ta’minlovchi muhim vositalardan biridir.

Komil Xorazmiyning devonidagi g‘azallarni o‘rganar ekanmiz ularning qofiyasiga alohida e’tibor berishimiz kerak. Shoir g‘azallarda qofiyaning tuzilishiga ko‘ra ikki turi ham ya’ni muqayyad va mutlaq qofiya turlarini va qofiya unsurlarni ko‘rishimiz mumkin.

1. Muqayyad qofiya arabcha so‘zdab olingan bolib “*bog‘langan”, “kishanlangan*” degan ma’nolarni bildiradi. U qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biridir. Raviy bilan tugallangan bo‘lib undan so‘ng hech qanday qo‘shimcha kelmasa muqayyad qofiya hisoblanadi. Quyida Komil Xorazmiy g‘azallari misolida ko‘ramiz:

Qading naxli bog‘i *nazokat* mango,
Qoshing shakli tig‘i *shahodat* mango.[1:17]

Ushbu baytda “*nazokat*”, “*shahodat*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlardir. Baytimizdagi “*nazokat*”, “*shahodat*” so‘zlari tarkibidagi “*t*” raviy, “*a*” ridf, “*k*” qayddir. Aniq bo‘ldiki, raviy harfimiz “*t*” dan keyin hech qanaqa qo‘shimcha yo‘q.

Raviy nima? Raviy – qofiya yaratuvchi unsur bo‘lib, ikki qofiyadosh so‘zlar o‘zagining yoki negizining so‘ngi ya’ni oxirgi harfi hisoblanadi.Qo‘shimchalar bundan mustasno. Raviy unli va undosh tovushlarni ifodalovchi harflar bo‘lishi mumkin.

Ridf nima? Ridf ham qofiya yaratuvchi unsurlardan biridir. Qofiyaning ridfi qofiyada raviydan oldin turgan unli harfdir.

Qayd nima? Qayd ham ridf singari raviy oldidan keladigan undosh harfdir. To‘g‘rirog‘i, esqa qolish uchun ta’kidlaymiz: ridf va qayd raviy oldidan keladigan tovushlardir.[9:100-101]

To itob og‘oz qildi ul quyosh *siymo* mango,

Tiyra zindondin batardur bu yoruq *dunyo* mango.[1:18]

Ushbu baytda “*siymo*”, “*dunyo*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlar. “*Siymo*”, “*dunyo*” so‘zlari tarkibidagi “*o*” unlisi raviy, “*i*”, “*u*” raviydan oldin kelgan unli harflar ridf, “*m*”, “*y*” undosh tovushlari qayddir. Shunisi aniqki, raviydan keyin hech qanday qo‘shimcha yo‘q. Demak g‘azalimiz muqayyad qofiyada ekan.

Buzuq ko‘ngulni gar obod istasang chek *ranj*,

Ki bu xarobada beranj hosil o‘lmas *ganj*.[1:42]

Ushbu baytda “*ranj*”, “*ganj*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlar. “*Ranj*”, “*ganj*” so‘zlari tarkibidagi “*j*” undosh tovushi raviy, “*a*” unli tovushi ridf, “*n*” undosh tovushi qayddir.

2. Mutlaq qofiya arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “*yetuk*”, “*to‘liq*” degan ma’nolarni bildiradi. Mutlaq qofiya qofiyaning tuzilishiga ko‘ra farqlanuvchi turlaridan biri. Qofiyadosh so‘zda raviydan keyin qo‘shimcha kelsa, mutlaq qofiya hisoblanadi. Mutaq qofiyaning ham raviydan keyin kelgan tovushlarning o‘z nomlari bor. Ular quyidagilar:

Vasl – raviydan keyin kelgan tovushlardir.

Xuruj – qofiyada vasldan keyin kelgan undosh yoki unli tovushdir.

Mazid – qofiyada xurujdan keyin kelgan undosh va unli tovush.

Noyira – o‘zini chetga oluvchi. Maziddan keyin kelgan undosh va unli tovushlar noyira deb yuritiladi. Quyidagi mutlaq qofiya unsurlarini Komil Xorazmiy g‘azallari misolida ko‘ramiz:

Ey la’li labing chashmai *hayvon*i malohat,

Vey naxli qading sarvi *xiramoni* malohat.[1:32]

Ushbu baytda “*hayvoni*”, “*xiramoni*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlardir. “*Hayvoni*”, “*xiramoni*” so‘zlari tarkibidagi “*n*” undosh tovushi raviy, “*o*” unli tovushi ridf, “*v*”, “*m*” undosh tovushlari qayd, raviydan keying “*i*” unli tovushi vasldir.

To labi la’lidin etti yor *izhori* hadis,

Bo‘ldi rangin o‘ylakim yoqut – *ruxsori* hadis.[1:37]

Ushbu baytda “*izhori*”, “*ruxsori*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlardir. “*Izhori*”, “*ruxsori*” so‘zlari tarkibidagi “*r*” undosh tovushi raviy, “*o*” unli tovushi ridf, “*x*”, “*s*” undosh tovushlari qayd, raviydan keyin kelgan “*i*” unli tovushi vasldir.

Ey nahli ishqinga dilu jonim *xazinalar*,

Dardu g‘aming xadangining omochi *siynalar*.[1:59]

Ushbu baytda *“xazinalar*”, “*siynalar*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlardir. “*Xazinalar”, “siynalar*” so‘zlari tarkibidagi “*a*” unli tovushi raviy, “*n*” undosh tovushi qayd, “*i*” unli tovushi ridf, “*l*” undosh tovushi vasl, “*a*” unli tovushi xuruj, “*r*” undosh tovushi maziddir.

Komil Xorazmiyning devonida zulqofiyataynlik, tarsi’ – qofiya, radd ul-qofiya, ichki qofiya, mukarrar qofiya kabi bir nechta qofiyaning unsurlari mavjud.

Zulqofiyatayn – ziynatli qo‘sh qofiya. Bayt misralarida ikki so‘zni qofiyadosh qilib keltirish.

Ko‘zlaring ustida to *qilmish makon* ul ikki qosh,

Novaki mujgoninga *bo‘lmish kamon* ul ikki qosh.[1:76]

Anglashildiki, birinchi misradagi “*qilmish*” bilan “*makon*”, ikkinchi misrada “*bo‘lmish*” bilan “*kamon*” ohangdosh va, ayni choqda, birinchi misradagi “*qilmish*” bilan ikkinchi misradagi “*bo‘lmish*”, birinchi misradagi “*makon*” bilan ikkinchi misradagi “*kamon*” so‘zlari qofiyalangan.

Ichkali ochdim labingdin bodai *gulfom fam*,

Vahki, bo‘ldi qismatim, ey sarvi *gulandom, dam*.[1:123]

Ushbu misralarda ham birinchi misradagi “*gulfom*” bilan “*fam*”, ikkinchi misrada “*gulandom*” bilan “*dam”* ohangdosh va, ayni choqda birinchi misradagi “*gulfom*” bilan ikkinchi misradagi “*gulandom*”, birinchi misradagi “*fam*” bilan ikkinchi misradagi “*dam*” so‘zlari qofiyalangan.

Tarsi’ – qofiya aslida tarsi’ she’r san’atlaridan biridir. Ayni choqda, tarsi’ qofiya sanati hamdir. Odatda, tarsi’ usulida yaratilgan qofiyalar “tarsi’-qofiya” deb yuritiladi. Tarsi’-qofiyaning o‘ziga xosligi shundaki, bunda bandning birinchi misrasidagi har bir so‘z ikkinchi misradagi “o‘z sherigi” bilan qofiyalanadi. Masalan:

Qading naxli bog‘i nazokat mango,
Qoshing shakli tig‘i shahodat mango.[1:17]

E’tibor bering-a: baytning birinchi misrasidagi “*qading*”, ikkinchi misradagi “*qoshing*”, birinchi misradagi “*naxli*”, ikkinchi misradagi “*shakli*”, birinchi misradagi “*bog‘i*”, ikkinchi misradagi “*tig‘i*”, birinchi misradagi “*nazokat*”, ikkinchi misradagi “*shahodat*” so‘zlari bir- biri bilan o‘zaro qofiyalanmoqda.

Alg‘iyos, az hodisoti davri davron alg‘iyos,
Valg‘iyos az sonihoti charxi gardon, alg‘iyos.[1:39]

Ushbu baytimizda ham birinchi misradagi “*alg‘iyos*”, ikkinchi misradagi “*valg‘iyos*”, birinchi misradagi “*hodisoti*”, ikkinchi misradagi “*sonihoti*”, birinchi misradagi “*davri*”, ikkinchi misradagi “*charxi*”, birinchi misradagi *“davron*”, ikkinchi misradagi “*gardon*” so‘zlari bir- birlari bilan o‘zaro qofiyalanmoqda.

Radd ul-qofiya arabcha so‘zdan olingan bo‘lib “*qofiyaning qaytishi”, “takror kelishi*” degan ma’noni bildiradi. Radd ul-qofiya shundan iboratki, qasida yoki g‘azaldagi birinchi misraning qofiyasi keying baytlarda ham takrorlanishi. Ushbu g‘azalimizda birinchi va ikkinchi baytlarida radd ul- qofiyani kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Birinchi bayt:

Agarchi mumkin emasdur mango *visoli* oning,

Hazin ko‘ngulg‘a berur shodlig‘ xayoli oning.

Ikkinchi bayt:

Bu xasta yolg‘uz erur hajr dashtida mahrum,

Fig‘onki, borcha erur mahrami *visoli* oning.[1:106]

Keyingi g‘azalimizda ham xuddi yuqoridagi g‘azalimiz kabi birinchi va ikkinchi baytda ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

Birinchi bayt:

Buzuq ko‘ngulni gar obod istasang chek ranj,

Ki bu xarobada beranj hosil o‘lmas *ganj*.

Ikinchi bayt:

Desangki g‘amdin o‘lay fard, bo‘lma hargiz juft,

Jahon arusig‘a kim ko‘rgazur dalol ila *ganj*.[1:42]

Quyidagi g‘azalimizda esa yuqoridagi g‘azallardan farq qilgan holda birinchi va o‘n birinchi baytlarda radd ul-qofiyani kuzatishimiz mumkin. Masalan:

Birinchi bayt:

Agar sarv emas qomating *bandasi*,

Ubudiyat ichra sarafkandasi.

O‘n birinchi bayt:

Mulozimliq aylar nechuk g‘ayrig‘a,

Ki Komil erur bir kishi *bandadi*.[1:166]

Komil Xorazmiyning lirikasida qofiyaning mukarrar qofiya degan turi ham ko‘rishimiz mumkin. Mukarrar takror demakdir. Mukarrar qofiya takrorlangan qofiyadir. Mukarrar qofiyada misradagi qofiyadosh so‘zlar takrorlangan holatda keladi, ya’ni odatdagidek bir

so‘zga unga ohangdosh ikkinchi bir so‘z emas, balki: ikki bir xil so‘zga boshqa ularga ohangdosh ikki boshqa so‘z takrori qofiyadosh bo‘lib keladi.

Mukarrar qofiya xuddi radifga o‘xshab ketadi, biroq unday emasligini Komil Xorazmiyning quyidago g‘azalida ko‘ramiz:

To gulshani jamoling ochar gul *chaman-chaman*,
Zulfi muanbaring sochar anbar *suman-suman*.
Har bir shikang‘a banddurur yuz shikasta dil,
To zulfi anbarin sango bo‘mish *shikan-shikan*.
Har mahfil ichra chunki bo‘lursan suxansaroy,
Sochti labing takallumi durlar *Adan-Adan*.
Och zulfi mushkfoming uqudin bu bazm aro,
To sochg‘ay ul royihi mushkin *Xo‘tan- Xo‘tan*.
Majlislar ichra qilg‘oli isori maqdaming,
Jam’ etti sham’lar durri ashkin *lagan-lagan*.
Gullar magar xiroming eshitmish chaman sori,
Yofrog‘lari aqiqini yig‘mish *Yaman-Yaman*.
To to‘g‘yosen bihishtning alvon taomidin,
Ber ochlarg‘a munda taoming *qazan-qazan*.
Komil ishidur ohu fig‘on andalibdek,
To gulshani jamoling ochar gul *chaman-chaman*.[1:135]

Ushbu g‘azaldagi *chaman-chaman, suman-suman, shikan-shikan, Adan-Adan, Xo‘tan-Xo‘tan, lagan-lagan, Yaman-Yaman, qazan-qazan* kabi so‘zlar takroiy holda kelib mukarrar qofiyani hosil qilib bermoqda.

Radif arabcha so‘zdan olingan bo‘lib *“otga mingashish”, “ergashib yurish”* degan ma’nolarni bildiradi. She’r baytlarida qofiya ortidan bir xil takrorlanib keladigan so‘z yoki

so‘zlar birikmasi radif hisoblanadi. Qofiya radifli yoki radifsiz bo‘lishi mumkin. Komil Xorazmiy lirikasida bir nechta radifsiz g‘azallar ham uchradi. Ushbu g‘azalimizda qofiyadan keyingi takrorlanib keluvchi so‘z ya’ni radif kelmagan.

Agar sarv emas qomating bandasi,
Ubudiyat ichra sarafkandasi.
Xiromingg‘a ta’zim etib ne uchun,
Bo‘lur infiol ila sharmandasi.
Sango xo‘plar zarradek beqaror,
Yuzungdur alar mehri raxshandasi.
Yoqo choki dil xun etar bog‘ aro,
Gulu g‘unchaki lablaring xandasi.
Kaloming hayo konining gavhari,
Julusing karam taxti zebandasi.
Kamoli malohat gulistonining,
Qading naxli sarvi xiromandasi.
Jabining saxo burjining axtari,
Uzoring vafo mehri tobandasi.
Xiromingga devona tovusdur,
Guvohi oning panbalig‘ jandasi.
Bu shukronag‘a qovma xohandasi,
Emassan sen oning chu xohandasi.
Uturding chu umring yili yitmishin,
Ne bo‘lg‘ay oni soli oyandasi?
Mulozimliq aylar nechuk g‘ayrig‘a,
Ki Komil erur bir kishi bandasi.[1:166]

Ushbu keltirgan g‘azalda “*bandasi”, “sarafkandasi”, “sharmandasi”, “raxshandasi”, “xandasi”, “zebandasi”, “xiromandasi”, “tobandasi”, “jandasi”, “xohandasi”, “oyandasi”, “bandasi”* kabi so‘zlar qofiyadosh so‘zlar. Qofiyadosh so‘zlardan keyin takrorlanib keluvchi so‘z ya’ni radif ishlatilmagan. Komil Xorazmiy lirikasida g‘azallarning radifsiz kelishi faqat bitta g‘azalda emas balki, bir nechta g‘azallarda ko‘rishimiz mumkin.

Komil Xorazmiyning g‘azallarida bir so‘zli radif, ikki so‘zli radif, uch so‘zli radif va juft so‘zli radif unsurlarini ko‘rishimiz mumkin.

Bir so‘zli radif:

Agarchi mumkin emasdur mango visoli *oning*,
Hazin ko‘ngulg‘a berur shodlig‘ xayoli *oning*.[1:106]

Ushbu keltirgan g‘azalda *“visoli”—“hayoli*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlar. Ulardan keyin kelgan *“oning” — “oning*” so‘zlari bir so‘zdan iborat bo‘lgan radifdir.

Alg‘iyos, az hodisoti davri davron *alg‘iyos*,
Valg‘iyos az sonihoti charxi gardon, *alg‘iyos*.[1:39]

Ushbu g‘azalda ham yuqoridagi g‘azalimiz kabi *“davron”—“gardon”* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar. Ulardan keyin kelgan *“alg‘iyos” —“alg‘iyos”* so‘zlari bir so‘zdan iborat bo‘lgan radifdir.

Ikki so‘zli radif:

Menga zulmin kam etmas gunbazi davvor *bir soat*,
To‘kar g‘am xirmanin boshimg‘a yuz xavvor *bir soat*.[1:35]

Komilning ushbu ga’zalida keltirilgan *“davvor”—“xavvor*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlar. Qofiyadosh so‘zlardan keyin kelgan “*bir soat*”—“ *bir soat*” so‘zlari ikki so‘zdan iborat bo‘lgan radifdir.

Qilib firoqida subhimni shom *ul gulrux*,
Makonim etmadi bir tun maqom *ul gulrux*.[1:50]

Ijodkorning ushbu ga'zalida *"shom"—" maqom"* so'zlari qofiyadosh so'zlar. Qofiyadosh so'zlardan keyin kelgan "*ul gulrux"— "ul gulrux*" so'zlari ikki so'zdan iborat bo'lgan radifdir.

Uch so'zli radif:

Ko'zlaring ustida to qilmish makon *ul ikki qosh*,

Novaki mujgoninga bo'lmish kamon *ul ikki qosh*.[1:76]

Ushbu keltirgan g'azalda *"makon"—"kamon"* so'zlari qofiyadosh so'zlar. Qofiyadosh so'zlardan keyin kelgan *"ul ikki qosh"—" ul ikki qosh"* so'zlari uch so'zdan iborat bo'lgan radifdir.

Yor bu xastanikim zor *edi bilmish bildim*,

G'amu anduh bila yor *edi bilmish bildim*.[1:127]

Komilning ushbu ga'zalida keltirilgan *"zor"—"yor"* so'zlari qofiyadosh so'zlar. Qofiyadosh so'zlardan keyin kelgan "*edi bilmish bildim*"—" *edi bilmish bildim*" so'zlari uch so'zdan iborat bo'lgan radifdir.

Komil Xorazmiy lirikasidagi g'azallarda hattoki, juft so'zli radiflar ham uchradi. Juft so'zli radif holati faqat bitta g'azalda uchradi.

Jon ofati erkandur, mahvash sanam, *qoshu ko'zung*,

Soldi boshimg'a yuz tuman ranju alam *qoshu ko'zung*.

Ming nozu jilva aylabon ag'yorga, faryodkim,

Aylar mango yuz ming tuman javru sitam *qoshu ko'zung*.

Ayb aylama ko'rgach seni bo'lsam hazinu beqaror,

Kim aqlu xushu toqatim aylar adam *qoshu ko'zung*.

Har dam solursen noz ila bo'ynungg'a ag'yor ilgini,

Nedur mango bir bo'sani qilsa kaqam *qoshu ko'zung*.

Jonim nechuk bo'lg'ay xalos ul uch balodin, ey pari,

Bedod etar shirin labing jonimg‘a ham *qoshu ko‘zung*.
Ondin biri diydoriga oshiqmen, ey zebo nigor,
Chun safhayi ijodg‘a yozdi qalam *qoshu ko‘zing*…[1:102]

Komil Xorazmiyning ushbu ga’zalida keltirilgan *“sanam”—“alam”—“sitam”—“adam”—“karam”—“ham”—“qalam”* so‘zlari qofiyadosh so‘zlar. Qofiyadosh so‘zlardan keyin kelgan “*qoshu ko‘zing*” so‘zlari juft so‘zdan iborat bo‘lgan radifdir.

Komil Xorazmiyning “Devon”idagi g‘azallarni o‘rganar ekanmiz, ijodkorning ijodiy faoliyati serqirra ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Ushbu maqolani yozish davomida Komilning “Devon”i tarkibiga kirgan g‘azallarning vaznini, qofiyasini va radifini o‘rgandik. Ijodkor gazallarining vaznida ham, qofiyasida ham va radifida ham o‘zidan oldin va o‘zidan keyin yashab ijod qilgan ijodkorlardan farqli ya’ni takrorlanmasdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Хоразмий Комил. «Девон». –Т.: 1975.
2. Юнусов М. «Хоразмий Комил» –Т.: 1960.
3. Абдуллаев Ҳ. Хозарм адиблари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994.
4. Жабборов Н. Огаҳий ва Комил: ижодий издошлик. //Шарқ юлдузи, 2001, 3-сон, 131-136-бетлар.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘zbekiston, 2014. –297 б.
6. Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. –Т.: Ўқитувчи, 1979. – 184 б.
7. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. –Т.: Фан, 1976. – 120 б.
8. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. —Т .:Ўзбекистон,2002.
9. Rahmonov V. she’riy san’atlar.—T.:Sharq, 2020.

10. Yusupova D. Aruz alifbosi. —T.:Akademnashr,2015.
11. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. —T.:Talim-media,2019.
12. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish.—T.:Akademnashr,2020.